



**TA'LIM KLASTERI SHAROITIDA ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ
BOLALARNING TA'LIM- TARBIYASIGA DOIR MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

*Andijon davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 2-kurs talabasi
Xakimova Gulbahor Dilshodbek qizi
Marasulov Bunyodjon Sharipovich
Boshlang'ich ta'lim kofedrasida dotsenti*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15237120>

Annotatsiya. Mazkur maqola ta'lim klasteri sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'lim tarbiyasiga taaluqli dolzarb masalalarni o'rganishga bag'ishlangan. Unda ushbu bolalar duch keladigan asosiy muammolar, jumladan, individual yondashuvning yetishmasligi, o'qituvchilar va pedagogik kadrlarning malaka darajasi, inkluziv muhitning rivojlanish darajasi tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, ushbu muammolarning yechimlari bo'yicha takliflar, jumladan, ta'lim tizimida inkluziv ta'limni mustahkamlash, o'qituvchilarni malakasini oshirish, hamkorlik klasterini tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar. Individual yondashuv, ta'lim klasteri, alohida yordamga muhtoj bolalar, pedagoglar malakasi, muammolar va yechimlar, ijtimoiy muhit, farmon va qarorlar.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 1-dekabrda qabul qilingan “Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida” gi PF – 5270 – sonli farmonida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga ularni jamiyatdagi mavqeyini yanada oshirishga qaratilgan. 2019-yil 29-aprelda qabul qilingan “Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida” gi PF 5712 sonli farmonida ta'lim-tarbiya jarayonida individuallashtirish tamoyilini bosqichma-bosqich singdirib borish, ta'lim berish metodlarini takomillashtirish imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim xizmati sifatini oshirish hamda mazkur toifadagi har bir bolaning inkluziv ta'lim olishiga bo'lgan huquqini ta'minlashga qaratilgan chora tadbirlarni belgilab beradi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrda qabul qilingan “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida” gi PQ- 4860-sonli qaror mamlakatimiz ta'lim tizimida jahon standartlari asosida islohotlarning maqsadli va manzili olib borilishini dolzarb masala sifatida o'z oldiga qo'ydi. Mazkur qaror asosida imkoniyati cheklangan shaxslarning turmush darajasi va sifatini yaxshilash ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish reabilitatsiya hamda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish inkluziv ta'limni kengaytirish belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-aprelda qabul qilingan PF 5987-sonli farmonida ta'lim klasterini yaratish sohada samaradorlikni ta'minlovchi omil sifatida belgilab berilgan. Ta'lim klasteri sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'lim va tarbiyasiga doir muammolar hamda ularning yechimlari ta'lim tizimining jiddiy e'tibor talab etuvchi jihatlardan biridir. Jamiyatning har bir a'zosi sifatida bu bolalarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish, ularning intellektual, ijtimoiy va psixologik rivojlanishini ta'minlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Ta'lim klasteri – bu bir-biriga yaqin joylashgan ta'lim muassasalarning hamkorlikda ishlash tizimi bo'lib, u o'qituvchilar, ota-onalar va jamiyat a'zolari o'rtasida samarali muloqot va o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga imkon yaratadi. Ammo alohida yordamga muhtoj bolalar uchun bu tizimda qulay muhit yaratish ayrim qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Muammolar qatorida inkluziv ta'lim tamoyillarini to'liq amalga oshirishdagi cheklovlar, maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassislarning yetishmasligi va o'quv mashg'ulot resurslarining cheklanganligi kabi masalalar alohida e'tiborga loyiqdir. Shu bilan birga, ta'lim klasteri sharoitida ushbu muammolarga innovatsion yechimlar topish, jamiyatning barcha qatlamlarini hamkorlikka chorlash va alohida yordamga muhtoj bolalar uchun moslashuvchan ta'lim jarayonini yaratish imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat



kasb etadi. Ta'lim klasterlari maktablar, universitetlar, davlat idoralari, notijorat tashkilotlari va biznes kabi bir nechta manfaatdor tomonlarni birlashtirgan holda, umumiy muammolarni hal etish va hamkorlik qilishga, shuningdek innovatsiya va bilim almashishni rag'batlantirishga qaratilgan. Bu esa ta'lim tizimini takomillashtirishning samarali usuli hisoblanadi. Ta'lim klasterlarining asosiy afzalliklaridan biri resurslar va tajribalarni birlashtirishdir. Ayniqsa inkluziv ta'lim tizimida bu juda samaralidir. Birgalikda ishlash orqali muassasalar, shu bilan birga, boshqa tashkilotlar ham takomillashtirilgan o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi hamda o'quv materiallarini ishlab chiqishda o'zlarining jamoaviy kuch va imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin. Bu alohida ehtiyojga muhtoj bo'lgan bolalar uchun yanada samarali va qiziqarli ta'lim jarayonini vujudga keltiradi. Ta'lim klasterlari ta'limning turli darajalari o'rtasidagi hamkorlikni ham qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, universitetlar alohida yordamga muhtoj bolalarni o'quv dasturlari, maxsus resurslardan foydalanish va amaliy o'rganish imkoniyatlarini taqdim etish uchun boshlang'ich va o'rta maktablar bilan hamkorlik qilishi mumkin. Bu talabalarning kelgusi faoliyatlariga mos ravishda yetishtirish imkonini beradi. O'qituvchilar va mutaxassislar bunday ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli ishtirokchisi bo'lish uchun zarur bo'lgan texnologik vositalar hamda yetarlicha bilim va malakalarni egallagan bo'lishlari lozim. Ta'limda nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun tog'ri texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada samaraliroq qiladi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar yordamchi vositalardan foydalanish orqali o'z salohiyatini sezilarli darajada yaxshilash va oshirish imkoniyatiga ega. Bunday bolalarga yordam beradigan ko'plab foydali vositalar mavjud. Bu texnologiyalar o'quvchilarda o'quv va mehnat vazifalarida mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradi, tengdoshlar va o'qituvchilar bilan to'liq muloqot qilish, mustaqil bilim olishni taminlash, o'zi bimalol sayrga chiqish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Ta'lim klasteri sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'lim va tarbiyasida uchraydigan bir qancha asosiy muammolar mavjud.

- Individual yondashuv yetishmasligi. Ta'lim muassasalari ko'pincha alohida yordamga muhtoj bolalar uchun moslashtirilgan o'quv rejalarga ega emas.

- Malakali kadrlar yetishmasligi. Maxsus pedagog va psixologlarning taqchilligi alohida yordamga muhtoj bolalarning ehtiyojlarini qondirishda qiyinchiliklar tug'diradi.

- Texnik vositalarning yetarli emasligi. Maxsus uskunalar va dasturlar yetishmasligi ta'lim jarayonlarini qiyinlashtiradi. Bu o'qituvchiga ham tarbiyasidagi o'quvchiga ham noqulaylik olib keladi.

- Ijtimoiy muhitni moslashtirish muammosi. Boshqa o'quvchilar va ota-onalarning tushunush va qo'llab quvvatlash darajasi yetarli emasligi.

- Resurslarni birlashtirishda qiyinchiliklar. Ta'lim klasterida barcha muassasalar va tashkilotlarning samarali hamkorligi ta'minlanmasligi.

Bunday muammolarga quidagicha yechimlar yechish maqsadga muvofiqdir.

- Individual ta'lim dasturlarini joriy etish. Har bir bolaning ehtiyojlariga mos keladigan ta'lim rejalarni ishlab chiqish va amalda qo'llash.

- Maxsus malakaga ega kadrlarni tayyorlash. Pedagoglar, psixologlar va logopedlar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

- Maxsus vositalarni ta'minlash. Alohida yordamga muhtoj bolalar uchun texnologiyalar va qo'shimcha materiallar bilan ta'minlash.

- Ijtimoiy ongini oshirish. Jamiyatda alohida yordamga muhtoj bolalarga bo'lgan munosabatni o'zgartirish uchun ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish.

- Hamkorlikni kuchaytirish. Ta'lim klasteridagi barcha tashkilotlar o'rtasida resurslarni o'zaro almashishni yo'lga qo'yish.

Individual yondashuv alohida yordamga muhtoj bolalar uchun ularning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda puxta rejalashtirilgan bo'lishi kerak. Bunday bolalarning ehtiyojlari, ta'lim darajasi, qobiliyatlari va imkoniyatlarini aniqlash uchun individual baholash o'tkaziladi. Bu jarayonda bolalarning kuchli tomonlariga, ularning



iqtidorlariga, qiziqishlariga alohida e'tibor qaratilib, ularning rivojlanish potentsiali aniqlanadi. Individual ishlashda pedagogik adaptatsiya ham muhim rol o'ynaydi, bolalarga o'qituvchi moslasha olishi ularni ham bu jarayonga moslashtirishi juda muhimdir. Bu ta'lim jarayonida o'qituvchining psixologik qo'llab quvvatlash ko'nikmalarini rivojlantirishi zarur hamda ota-onalar bilan faol muloqot olib borish, ularga kerakli bilim va ko'nikmalarini berib borishi maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda muhim jihat shundaki, har bir bola o'zini qo'llab-quvvatlangan, qabul qilingan va hurmat qilinganligini his qilishi kerak. Individual yondashuvni amalga oshirish uchun faqatgina pedagoglarning emas, balki oila va jamiyatning ham faol ishtiroki zarur.

Alohida yordamga muhtoj bolalarning ta'lim tarbiyasi dolzab masala bo'lib, individual yondashuvning yetishmasligi asosiy muammolardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Klaster doirasida standart ta'lim dasturlari ko'pincha maxsus ehtiyojli bolalarning talablari va qobiliyatlariga mos kelmaydi. Bundan tashqari, malakali pedagoglarning yetarli emasligi, resurslarning cheklanganligi va jamiyatning ushbu masalaga e'tibori pastligi ham muhim qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Mazkur muammolarni yechish uchun moslashtirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, pedagogik xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish, maxsus ehtiyojlarga mos vositalar bilan ta'minlash kabi amaliy chora tadbirlar zarur. Shuningdek, ota-onalar va jamiyatni faol jalb qilish orqali bolalarning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, ta'lim klasterlarida maxsus ehtiyojli bolalar uchun inkluziv muhit yaratish nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki jamiyatning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqola ushbu yo'nalishda asosiy muammolarni aniqlash va amaliy yechimlar taklif qilish orqali masalani yanada chuqurroq yoritishga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim -tarbiya berish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ 4860-son qarori.
2. F.U Qodirova, D. A Po'latova 'Inkluziv ta'lim'.
3. X. N Muzaffarova, D. Tangirova "Inkluziv ta'lim"
4. Xo'jamsulov.U "pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy nazariy asoslari"
2020 y
5. Ta'lim klasteri sharoitida maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarni inkluziv va ixtisoslashtirilgan maktab ta'limiga kompleks tayyorlash metodikasini takomillashtirish' mavzusidagi loyiha dasturi. 2021 y.
6. D. Xolmurodov maxsus yordamga muxtoj bolalar uchun pedagogik yondashuvlar Toshkent. Sharq nashriyoti. 2018.
7. Internet manbalari.